

## "JADIDCHILAR FAOLIYATI"

*Andijon viloyati Andijon ixtisoslashtirilgan san'ati maktabi*

*Tarix fani ukutuvchisi*

***Yusupova Gulchexraxon Yuldashevna***

Annotatsiya: Ushbu maqolada Jadidchilar faoliyati va Jadidchilik haqida ma'lumot olishingiz mumkin. Jadidchilik yoki jadidizm (arabcha: جَدِيد jadīd — yangi) — XIX asr oxiri XX asr boshida Turkiston, Kavkaz, Qrim, Tatariston hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy harakat.[1] Jadidchilik dastlab, XIX asrning 80-yillarida Qrimda vujudga keldi. XIX asrning 90-yillaridan O'rta Osiyoda tarqaldi

Kalit so'zlari: Jadidchilik, taraqqiyotparvarlar, adabiyot, turkiy til, panturkizm g'oyalari.

Jadidchilik avval madaniyat sohasidagi harakat sifatida faoliyat yuritgan. Bu oqim vakillari taraqqiyot uchun kurashish, turkiy tillarni rivojlantirish, shu tillardagi adabiyotni boyitish, dunyoviy ilmlarni o'rganish, fan yutuqlaridan foydalanish hamda ayollar va erkaklar tengligi uchun kurashishga chaqirishgan. Keyinchalik jadidchilar panturkizm g'oyalarini targ'ib qilishgan. Sovet davrida yozilgan adabiyotlarda jadidchilikka „burjua-liberal, millatchilik harakati“ deb ta'rif berilgan.[3] Bu davrda asosan tanqid qilingan jadidchilik namoyandalari nomi SSR parchalanib ketganidan keyin qayta tiklandi. Jadidchilik dastlab XIX asrning 80-yillarida Qrimda Ismoilbek Gasprinskiy rahbarligida qrimtatarlar o'rtasida vujudga keldi. Jadidchilik harakati namoyandalari ko'pincha o'zlarini taraqqiyparvarlar, keyinchalik jadidlar deb atashgan. O'sha davrning ilg'or taraqqiyparvar kuchlari, birinchi navbatda, ziyolilar mahalliy aholining umumjahon taraqqiyotidan orqada qolayotganligini his etib, jamiyatni isloh qilish zaruriyatini tushunib yetgandilar. Jadidchilik mohiyat e'tibori bilan avvalo siyosiy harakat edi. Uning shakllanish va mag'lubiyatga uchrash davrlari bo'lib, ularni shartli ravishda to'rtga bo'lish mumkin. Turkiston, Buxoro va Xiva hududida bu davrlar 1895–1905; 1906–1916; 1917–1920; 1921–1929-yillarni o'z ichiga oladi. Birinchi davrda

Turkistonda podsho Rossiyasining mustahkam o‘rnashib olishi kuzatiladi. U o‘z siyosiy agentlari (vakillari) yordamida mahalliy xon va amir vakolatlarini cheklabgina qolmay, ularni qo‘g‘irchoqqa aylantirib, rus va g‘arb sarmoyadorlarining ishlashi va yashashi uchun sharoit yaratadi, turli kompaniyalar, aksiyadorlik jamiyatlari manfaatini ko‘zlaydi. Ayni chog‘da mahalliy aholining talab va ehtiyojlari nazarga olinmay qo‘yildi, diniy e‘tiqodlari, urf-odatlarini bilan hisoblashmaslik, ularni mensimaslik kuchaydi. Hayotiy, ilmiy saviyasi yuqori bo‘lgan qozilar tajribasiz kishilar bilan almashtirildi, poraxo‘rlik, ijtimoiy-siyosiy adolatsizlik avj oldi. Madrasa va maktablar faoliyatini cheklash, mahalliy joy nomlarini ruscha atamalar bilan almashtirish, hatto mahkama jarayonida qozilar bo‘yniga xoch taqtirishgacha borildi. O‘sha davr ahvolini Muhammadali xalfa Sobir o‘g‘li (Dukchi eshon) xalqqa qarata o‘z „Xitobnoma“si (1898)da yaxshi bayon qilgan. Millat istiqbolini o‘ylovchi taraqqiyparvar kuchlar xalqning deyarli barcha tabaqalari — hunarmand, dehqon, savdogar, mulkdor, ulamolar orasida mavjud edi. Ziyolilar dastlab chorizmga qarshi kurashni xalqni asriy qoloqlikdan uyg‘otish — siyosiy-ma‘rifiy jabhadan boshlashga qaror qildilar. Jadidchilik harakati ana shunday tarixiy bir sharoitda Turkiston mintaqasida rivojlanish uchun o‘ziga qulay zamin topdi. Jadidlar orasidan yetuk olimlar, sanoat va ziroatchilik sohalarining zamonaviy bilimdon mutaxassislari, madaniyat arboblari yetishib chiqib, yurtni obod va o‘z vatanlarini mustaqil ko‘rishni orzu qildilar va shu yo‘lda kurashdilar. Jadidlarning Turkiston mustaqilligi uchun kurashida asosan quyidagi yo‘nalishlar ustuvor edi: yangi usul maktablari tarmog‘ini kengaytirish; qobiliyatli yoshlarni chet elga o‘qishga yuborish; turli ma‘rifiy jamiyatlar va teatr truppalari tuzish; gazeta va jurnallar chop qilish, xalqning ijtimoiy-siyosiy ongini yuksaltirish bilan Turkistonda milliy demokratik davlat qurish.

Jadid ziyolilarining kuchli partiyasi tashkil qilingan taqdirdagina bu ishlarni amalga oshirish mumkin edi.

Jadidchilikning asosiy g‘oya va maqsadlari quyidagilar edi:

Turkistonni o‘rta asrlarga xos qoloqlik va diniy xurofotdan ozod etish

shariatni isloh qilish

xalqqa ma‘rifat tarqatish

Turkistonda muxtoriyat hukumatini barpo etish uchun kurash  
Buxoro va Xivada konstitutsiyaviy monarxiya va parlament  
keyinchalik demokratik respublika tuzumini o'rnatish orqali ozod va farovon  
jamiyat qurish

barqaror milliy valyutani joriy qilish va milliy qo'shin tuzish.

Toshkent, Farg'ona, Buxoro, Samarqand va Xivada hur fikrli va taraqqiyparvar  
kishilarning ayrim guruhleri tomonidan ochilgan madaniy-ma'rifiy yo'nalishdagi  
jamiyat va uyushmalardan jadidchilik harakati shakllandi.

O'rta Osiyo tarixiy voqealarga g'oyat boy o'lka bo'lishi bilan birga azaldan ilm-fan, madaniyat va ma'naviyatning markazlaridan biri bo'lib kelgan. Bu o'lka dunyoga ma'naviyat va ma'rifatning barcha sohalarida yuzlab, minglab jahonshumul ulug' zotlar, davlat arboblari tarbiyalab bergan. Umumbashariyat ma'rifatparvarligini yaratishda buyuk ajdodlarimiz bevosita ishtirok etganlar, uning taraqqiyoti va boyishiga ulkan hissa qo'shganlar. O'rta Osiyoning madaniy merosi jahon madaniyati va ma'rifatining zuviy ajralmas tarkibiy qismidir. Endilikda jahon ma'naviyati va ma'rifati saltanatida o'z o'rinlariga ega bo'lgan ulug'larimizni teran anglash, o'rganish va ulug'lash vaqti keldi. Afsuski, salkam 150 yillik mustamlakachilik, 70 yillik totatitar tuzum hukmronligi davrida respublikamiz yosh avlodi, Islom Karimov aytganidek, «...necha yillar bizni tariximizdan, dinimizdan, ma'naviy merosimizdan g'ofil etishga urindilar, - natijada ular o'z xalqning tarixini, uning boy tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-falsafiy, axloqiy madagiyatidan bahramand bo'lish, o'rganishdan mahrum bo'lib keldi». O'rta Osiyo tarixiy voqealarga g'oyat boy o'lka bo'lishi bilan birga azaldan ilm-fan, madaniyat va ma'naviyatning markazlaridan biri bo'lib kelgan. Bu o'lka dunyoga ma'naviyat va ma'rifatning barcha sohalarida yuzlab, minglab jahonshumul ulug' zotlar, davlat arboblari tarbiyalab bergan. Umumbashariyat ma'rifatparvarligini yaratishda buyuk ajdodlarimiz bevosita ishtirok etganlar, uning taraqqiyoti va boyishiga ulkan hissa qo'shganlar. O'rta Osiyoning madaniy merosi jahon madaniyati va ma'rifatining zuviy ajralmas tarkibiy qismidir. Endilikda jahon ma'naviyati va ma'rifati saltanatida o'z o'rinlariga ega bo'lgan ulug'larimizni teran anglash, o'rganish va ulug'lash vaqti keldi. Afsuski, salkam 150 yillik mustamlakachilik, 70 yillik totatitar tuzum hukmronligi davrida respublikamiz

yosh avlodi, Islom Karimov aytganidek, «...necha yillar bizni tariximizdan, dinimizdan, ma'naviy merosimizdan g'ofil etishga urindilar, - natijada ular o'z xalqning tarixini, uning boy tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-falsafiy, axloqiy madagiyatidan bahramand bo'lish, o'rganishdan mahrum bo'lib keldi».

References:

1. Ayniy S., Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar, Moskva, 1926;
2. Risqulov Toshkent, Revolyusiya i korennoye naseleniye, Toshkent, 1926;
3. Ziyoye Sayd, O'zbek vaqtlari matbuotiga oid materiallar (1870—1927), Toshkent, 1927;
4. Programmnie dokumenti musulmanskih politicheskix partiy (1917—1920), Oksford, 1985;
5. Revolyusiya v Sredney Azii glazami musulmanskih bolshevikov, Oksford, 1985;
6. Politicheskaya jizn russkix musulman do fevral'skoy revolyusii, Oksford, 1987;
7. Mustafoye Cho'qay o'g'li, Istiqlol jallodlari, Toshkent, 1992;
8. Cho'lpon, Asarlar, 1-2-jildlar, Toshkent. 1994;
9. Rajabova R. va boshqalar, O'zbekiston tarixi (1917—1993-yillar), Toshkent, 1994;
10. Xo'jayev F., Buxoro inqilobining tarixiga materiallar, Toshkent, 1997;
11. Validiy, Bo'linganni bo'ri yer (Xotiralar), Toshkent, 1997;